
ENG FAOL IJODIY-MADANIY MASALALAR BO'YICHA TARG'IBOTCHI ANIQLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori ijrosini ta'minlash, faoliyati namunali yo'lga qo'yilgan umumta'lim maktablarining ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilari ish tajribasini ommalashashtirish hamda ularning mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida joylarda "Eng faol Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi" respublika tanlovining tuman bosqichlari o'tkazilmoqda.

Toshloq tumanidagi Axborot-kutubxona markazida "Eng faol Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi" tanlovining tuman bosqichi o'tkazildi. Tanlovda ishtirokchilarning ish faoliyatlari davomida erishgan natijalari va ularning qobiliyatlari yaqqol namoyon bo'ldi.

Tanlovning shartlariga ko'ra g'oliblar aniqlandi.Unda, 1-o'rinni 32-umumiy o'rta ta'lim maktabining Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi M.Saidova. 2-o'rinni 7-umumiy o'rta ta'lim maktabining Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi O'.Nishonova. 3-o'rinni 37-umumiy o'rta ta'lim maktabining Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi Z.Nurmatovalar egalladilar.

G'oliblarga Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi tomonidan diplom va esdalik sovg'alar topshirildi.

2023-04-06 08:33:50